

MUNIS VA OGAHIIY IJODIDA MANQABAT AN'ANALARINING DAVOMIYLIGI ("FIRDAVS UL-IQBOL" MISOLIDA)

Botirova Alfiya Zikir qizi

*Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm adabiy maktabining yirik vakillari Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy ijodida manqabat janrining o'rni, ularning "Firdavs ul-iqbol" asarida mazkur janrni qanday davom ettirganliklari tahlil qilinadi. Asarda manqabat janri orqali diniy-axloqiy qadriyatlar, tasavvufiy g'oyalar va tarixiy shaxslarning ma'naviy qiyofasi badiiy tarzda aks ettirilgani ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Munis, Ogahiy, manqabat, Firdavs ul-iqbol, tasavvuf, madh, an'ana, tarixnavislik, Xorazm adabiy muhiti.

O'zbek adabiyotining XIX asrda Xorazm vohasida shakllangan yirik adabiy muhitida Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy alohida o'rin tutadi. Ular o'z asarlari orqali nafaqat tarixiy jarayonlarni yoritgan, balki diniy-ma'naviy qadriyatlarni badiiy ifoda vositasi orqali xalq ongiga singdirgan. Munis tomonidan boshlangan, keyinchalik Ogahiy tomonidan yakunlangan "Firdavs ul-iqbol" asari ana shu ikki ijodkorning badiiy va tarixnavislik mahoratini birlashtirgan nodir yodgorlikdir. Asarda hamd, na't, munojot bilan bir qatorda manqabat janriga oid parchalar ham mavjud bo'lib, ular ikki shoirning tasavvufiy dunyoqarashi va ma'naviy merosga sadoqatini ifodalaydi.

Manqabat (manqib ar.-madh-u ta'rifga munosib ezgu ishlar, go'zal sifatlar) – mashhur din va tasavvuf ahlining hayoti, faoliyati, favqulodda xususiyatlari, namunali xulqini yod etib yozilgan asar. Manqib dastlab hazrat Ali (r.a.) va uning avlodidan chiqqan o'n ikki imom ta'rifida bitilgan. Lekin keyinchalik din-u tasavvufning ulug' namoyandalari va rahnamolarining hayoti va hollari haqida ham yaratila boshladi. U, asosan, mashhur so'fiylar yoki ulamolarning shogirdlari va hammaslamlari tomonidan yozilgan. Unda mashhur shayx-u valiylarning ibratli faoliyatlari va g'ayritabiiy hollari ko'tarinki uslubda mubolag'ador qilib tasvirlangan. Sayyid ibn Shaho buddin Hamadoniyni Ali (r.a.) avlodi ta'rifiga bag'ishlangan "Manoqib ul-sodot" Abduqayum xoja ibn Eshon Shamsuddinxojaning "Manoqibi Xoja Yusufi Sayfiddini Boharziy" manoqiblari shular jumlasidandir. Ba'zi adabiyotshunoslar Navoiyning "Holoti Said Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Mahmud" asarlarini ham manqabat janri namunasi deb hisoblaydilar. Lekin ular tasvirning sodda va samimiyligi, ortiqcha mubolag'aga yo'l qo'yilmaganligi, voqealarning hayotiyliigi bilan realistik asarlarga o'xshab ketadi. Shuning uchun B.Nazarov ularni manoqib holot deb ataydi. "Manoqib holot o'z zamonasining shoir va yozuvchilaridan tashqari avliyo-yu shayx larning hayoti va faoliyati haqidagi risolaga o'xshash asarlardan hisoblanadi. Manoqib holotlarda odatda biror-bir mashhur valiy-shayxning, tarixiy shayxning hayoti, ijodiy faoliyati, shaxsiy

fazilatlari yoritiladi va tarjimai hollari bilan birga ularning shaxsiyati, zamondoshlari bilan munosabati, ijtimoiy faoliyatiga doir hikoyat, rivoyat va naqlar kiritiladi. Natijada, Manoqib holotlarda ilmiy va ijodiy dalillar badiiylilik bilan qorishib ketib, ular o'z zamonasi nasrining namunasiga aylangan. Bunday Manoqib holotlardan Xondamirning "Makorim ul-axloq", Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Mahmud", "Holoti Said Hasan Ardasher" kabilarni eslatish mumkin". Xorazm adabiy muhitida esa bu an'ana Munis va Ogahiy ijodida o'ziga xos ko'rinish kasb etdi. Ular manqabatni diniy tuyg'ularni yuksaltirish, tasavvufiy falsafani ifodalash va tarixiy shaxslarni ruhiy jihatdan ulug'lash vositasi sifatida ishlatganlar.

Munis Xorazmiy "Firdavs ul-iqbol" asarining muqaddima qismini yozar ekan, avvalo Allohga hamd, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga na't va so'ngra avliyolar, ulamolar, salohiyatli insonlarga manqabat tarzida murojaat qiladi. Munisning manqabatlari alohida xususiyatlari bilan ajralib turad. Har bir ta'rifda nasriy qofiya saj'dan foydalanadi va badiiy tasvir vositalarini unumli qo'llaydi. Munis "Firdavs ul-iqbol" asari Abu Bakr ibn Abi Qahofa raziyallohu anhuri madh etar ekan asar ohangdorligini oshirib, saj'i mutovoziy (to'liq saj')-nasriy parchadagi ayrim so'zlarning vaznda ham, raviy harfida ham mos tarzda qo'llagan. Asarning "Niyobat ma'rakasining sho'x javloni, rayosat mahkamasining nofizi farmoni, as'hobi yaqin afzali, arbobi din akmali, "faqat ikkovi g'orda edi" oyatining sababi nuzuli, [25]Tangri va rasulning muqarrib va maqbuli, a'ni, avrangi zebdor al-xilofa, amir al-mo'minin Abu Bakr ibn Abi Qahofa raziyallohu anhu". Bu o'rinda har bir so'z o'zaro qofiya asosida yaratilgan: Niyobat-rayosat, ma'rakasining-mahkamasining, sho'x javloni- nofizi farmoni; as'hobi-arbobi-sababi, yaqin-din, afzali-akmali-nuzuli so'zlari orqali ifadalagan. Bu o'rinda iqtibos san'atidan "faqat ikkovi g'orda edi" (Qur'oni karim, Tavba surasi 40 oyat) foydalanish orqali Abu Bakrning rasulga yaqinligi, sadoqati va iymonining yuksakligi badiiy asos bilan isbotlanmoqda. Tangri va rasulning muqarrib va maqbuli "avrangi zebdor al-xilofa" "amir al-mo'minin" sifatleri orqali Abu Bakr xalifalikni bezagan va unga sharaf keltirgan siymo sifatida ulug'laydi. Shuningdek har bir nasriy orindan so'ng asar badiiyligini oshirish maqsadida g'azal, qit'a, ruboiy, bayt, masnaviy kabi janrlardan ham foydalanadi.

Qit'a:

Xudovandi ki millatga berib zayn,
Erur hukmidin aning din nizomi.
O'tirgandek Qamar Kun manzilida,
Risolat shohining qoim maqomi.
Kamoli sidqdin Siddiqi akbar,
Nigini dahr aro farxunda nomi.

Shoir Abu Bakrni rasulullohning vorisi, dinga posbon sifatida e'tirof etmoqda. Birinchi misrada Alloh musulmonlarga Abu Bakr kabi buyuk insonni berib, ularni bezagan. Bu satrda metafora (isti'ora) mavjud: inson — ziynat, go'zallik vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Uchunchi misrada Quyosh — Muhammad (s.a.v.) Oy — Abu Bakr Siddiq (r.a.) o'xshatish orqali shoir badiiy niyatini ochib bergan ya'ni Payg'ambar

(s.a.v.) vafotidan so'ng, Abu Bakr u zotning nuridan porlagan Oy singari xalifalik taxtiga o'tirdi. Bu o'xshatish orqali Payg'ambar bilan Abu Bakr orasidagi nuriy bog'liqlik tasvirlanadi. Munis to'rt xalifani ulig'lash, ta'rif tavsifda bir-birini takrorlanmas so'z va so'z birikmalarini qo'llaydi. "Kufri behuda razmlariga siyosat maydonining ma'rakaoroyidin hujasta bazmlariga inoyat bazlining xazinagushoyi, shariat ayvonining xovandi, adolat devonining xudovandi. Arab mulkining sababi tafoxiri, ajam hukkomining mavjibi takassuri, ya'ni hazrat xilofatmaob amir al-mo'minin Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhu". Ogahiy bu ta'rifda Umar ibn al-Xattob (r.a.)ni adolat, siyosat, saxovat va shariat timsoli sifatida madh etadi. U islom saltanatining faxri, adolat va tartibning ramzi sifatida tasvirlanadi. Matndagi tasvir vositalari (tashbeh, mubolag'a, isti'ora) orqali shaxsning ulug'ligi badiiy tarzda yuksak pog'onaga ko'tarilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy "Firdavs ul-iqbol" asarida manqabat janriga xos an'analarni yuksak badiiy saviyada davom ettirgan. Asarda keltirilgan manqabatlar faqat maqtov mazmunida emas, balki ahl al-baytga ehtirom, diniy-ma'rifiy g'oya va axloqiy qadriyatlarni targ'ib etuvchi poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Ogahiy manqabat orqali islomiy qadriyatlar, payg'ambarlar va avliyolarga bo'lgan sadoqatni, ularning fazilatlarini tarixiy kontekstda yoritadi. Bu bilan u tarixiy nasr doirasida diniy lirikaning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, manqabatlar "Firdavs ul-iqbol" asarining diniy, axloqiy va estetik qatlamlarini boyituvchi asosiy poetik unsurlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Munis Xorazmiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Ogahiy, Muhammad Rizo. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Fan, 1961.
3. To'xtiyev Sh. Xorazm adabiy muhiti va Ogahiy maktabi. – Toshkent: Fan, 1998.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 1983.
5. Qur'on Karim. Tarjimai ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.